



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI**

**МИНИСТЕРСТВО ОБОРОНЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**MINISTRY OF DEFENSE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**



**“SOHIBQIRON AMIR TEMURNING JAHON  
VA MILLIY HARBIY SAN'AT RIVOJIGA  
QO'SHGAN HISSASI”**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-USLUBIY KONFERENSIYA  
TO'PLAMI**

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ**

**МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ**

**“ВКЛАД ВЕЛИКОГО ПОЛКОВОДЦА АМИРА ТИМУРА В РАЗВИТИЕ  
МИРОВОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЕННОГО ИСККУСТВА”**

**03.04.2024**

**“THE CONTRIBUTION OF MASTER AMIR TEMUR TO THE DEVELOPMENT  
OF WORLD AND NATIONAL MILITARY ART”**

**COLLECTION OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND METHODOICAL  
CONFERENCE ON THE SUBJECT**

**Chirchiq shahri**

**БИБЛИОТЕКА  
УЧЕБНОГО ФОНДА ЧВТКИУ  
Инв № 1637**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI**  
**МИНИСТЕРСТВО ОБОРОНЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**CHIRCHIQ OLIY TANK QO‘MONDONLIK**  
**MUHANDISLIK BILIM YURTI**  
**ЧИРЧИКСКОЕ ВЫСШЕЕ ТАНКОВОЕ КОМАНДНО ИНЖЕНЕРНОЕ УЧИЛИЩЕ**

**XALQARO AMIR TEMUR XAYRIYA JAMOAT FONDI**  
**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОБЩЕСТВЕННЫЙ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫЙ**  
**ФОНД АМИРА ТЕМУРА**



***“SOHIBQIRON AMIR TEMURNING JAHON VA MILLIY  
HARBIY SAN‘AT RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI”***

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-USLUBIY KONFERENSIYA**

**T O ‘ P L A M I**

**2024-yil 3-aprel**

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ**  
**МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ**  
**“ВКЛАД ВЕЛИКОГО ПОЛКОВОДЦА АМИРА ТИМУРА В РАЗВИТИЕ**  
**МИРОВОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЕННОГО ИСКУССТВА”**

**“THE CONTRIBUTION OF MASTER AMIR TEMUR TO THE DEVELOPMENT OF**  
**WORLD AND NATIONAL MILITARY ART”**  
**COLLECTION OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL CONFERENCE**  
**ON THE SUBJECT**

2024 yil



O'UK. 358.119.1.

## Sohibqiron Amir Temurning jahon va milliy harbiy san'at rivojiga qo'shgan hissasi – Chirchiq OTQMBY 2024-yil 3-aprel. 276 b.

Ushbu to'plam Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti gumanitar fanlar kafedrasida professor – o'qituvchilari tashabbusi bilan o'tkazilgan konferensiya natijalari bo'yicha tayyorlandi.

To'plamda Sohibqiron Amir Temur siymosi vatanparvarlik va milliy g'urur kabi yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda nihoyatda dolzarb ekanligi va biz uni o'rganishimiz zarurligi haqida turli tezis (maqola)lar yig'ilgan.

To'plamdagi materiallardan ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fanlar doirasida, shuningdek, tarixiy, siyosiy bilimlarni va dunyoqarashni oshirish maqsadida keng foydalanish mumkin.

### II-TOM,

Xalqaro ilmiy-uslubiy konferensiya materiallari to'plami,  
[dotsent, polkovnik **Sh.X.Mamajonov** boshchiligida va h.f.d. (DSc), professor,  
polkovnik **S.S.Abdurayimov**ning umumiy tahriri ostida]

#### Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyaning tahrir hay'ati a'zolari:

Abdurayimov S.S., h.f.d. (DSc), professor, polkovnik;

Otamatov M.A., podpolkovnik;

Urunov U.R., podpolkovnik;

Xasonboyev B.V., p.f.f.d. (PhD);

Xolmatov X.X., dotsent;

Vorisova R.S., kimyo fanlari nomzodi, dotsent;

Burxonov T.M., p.f.f.d. (PhD), dotsent.

#### Ekspertlar:

**B.A.Tilavov.** Chirchiq OTQMBY Gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi, dotsent;

**X.B. Saitxodjayev.** Chirchiq OTQMBY Gumanitar fanlar kafedrasida professori f.f.n., dotsent;

**M.B.Sherov.** Chirchiq OTQMBY GF kafedrasida katta o'qituvchisi f.f.d (PhD) dotsent, mayor;

**B.T.Xaitov.** Chirchiq OTQMBY Gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi.

**\* Matnlardagi foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar.**

To'plam Chirchiq OTQMBY boshlig'ining "14".03.2024 yildagi 172-sonli buyrug'iga muvofiq va Bilim yurti boshlig'ining 2024-yil "14" mart kuni tasdiqlagan dasturi asosida tashkil etildi.

**Texnik muharrir:** Chirchiq OTQMBY Gumanitar fanlar kafedrasida gumanitar fanlar sikli boshlig'i dotsent, podpolkovnik **A.T. Dusboyev.**

**To'plam muharriri, maqolalarni yig'uvchi:** Chirchiq OTQMBY Gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi, dotsent **B.A.Tilavov.**



## SOHIBQIRON AMIR TEMUR BUNYOD ETGAN ZIYORATGOH: TARIXI VA BUGUNI

**Sh.B.Jumayeva**

CHDPU "O'zbekiston tarixi" kafedrasi mudiri t.f.f.d. (PhD), dotsent

O'zbekiston Respublikasi o'zining boy tarixi, betakror ma'moriy-tarixiy obida va ziyoratgohlari bilan dunyoga mashhur desak xato bo'lmaydi. Bugungi kunda yurtimizda 7000 dan ortiq me'moriy obidalar, 2700 tadan ortiq monumental san'at asarlari davlat muhofazasiga olingan. Mustaqillik sharofati bilan xalqimiz tarixi, noyob tarixiy obidalar va ziyoratgohlar qayta tiklanib, kelajak avlodlarga yetkazib berish imkoniyati yaratildi. Bu borada Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevraldagi "Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi va chora-tadbirlar dasturining ishlab chiqilganligi hududlarda hali o'rganilmagan madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Yurtimizning qaysi hududiga tashrif buyurmang, o'ziga xos ziyoratgoh va qadamjolarini ko'rasiz. Taniqli olim G'aybulla as-Salom ta'kidlaganlaridek, "Yurtimiz shunday muqaddas makonki, qayerida yurmagin, qadamingni ehtiyot bo'lib tashlashing kerak: chunki uning har bir toshi yoki kesagi buyuk bir zotning xoki bo'lishi mumkin!"

Ana shunday mashhur ziyoratgohlardan biri Toshkent viloyatidagi Zangiota majmuasidir. Ziyoratgohning yana bir o'ziga xos jihati shuku, bu bebaho tarixiy-me'moriy obidaning bunyod etilishi buyuk sarkarda va davlat arbobi, sohibqiron Amir Temur nomi bilan bog'liq. O'rta asrlarda yashab o'tgan aziz-avliyo Zangi ota nomi bilan atalgan qishloq Toshkentning janubiy-g'arbiy tomonida, shaharga tutash manzilda, Chinozga olib boriladigan qadimiy yo'l bo'yida joylashgan. Bu-Sharq shaharsozligida aholi manzilgohlarining aziz-avliyolar maqbarasi atrofida, muqaddas ziyoratgoh negizida bunyod etilishi an'anasining yana bir yorqin ifodasidir .

Toshkent-qadimiy shaharlardan biri bo'lib, qadimdan Yevropa va Osiyoning darvozasi vazifani bajarib, o'zining 2200 yillik tarixi davomida juda murakkab davrlarni boshdan kechirgan. Toshkentning qulay geografik o'rni va savdo-sotiq sohasidagi mavqei doimo qo'shni davlatlarni qiziqtirib kelgan. Shu bois, Toshkentga tashqaridan ko'p bosqinchilik yurishlari bo'lgan, lekin shahar aholisi ularga matonatli qarshi tura olgan. Arablar istilosi, mo'g'illar bosqini fikrimizga misol bo'la oladi. Ayniqsa Toshkent hududining 1220 yil mo'g'illar tomonidan istilo etilishi, XIII-XIV asrlar birinchi yarmida Chig'atoy ulusi tarkibiga kiritilishi natijasida iqtisodiy-ijtimoiy yuksalish ortga ketib, Toshkent Movarounnahrning boshqa shaharlaridan orqada turar edi .



XIV- XV asrlarda Toshkent vohasining Amir Temur va Temuriylar davlati tasarrufiga kiritilishi, 1410 yilda Ulug'bek ixtiyoriga mulk tarzida berilishi hududning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan kuchayishiga zamin yaratdi. Toshkent vohasi Amir Temur va Temuriylar davrida nafaqat iqtisodiy balki strategik jihatdan muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, Sohibqiron Amir Temurning Mo'g'ilistonga qilgan yurishlari chog'ida Toshkentda bo'lgan. 1397 yilda buyuk Sarkarda Xo'ja Ahmad Yassaviy yodgorlik majmuasi binolarini qurilishini boshlash ishlarida shaxsan ishtirok etish uchun Toshkent orqali Yassiga yo'l oladi.

Mojor olimi Herman Vamberining ma'lumot berishicha "Temur har bir muvaffaqiyatini, har bir sevinchli voqeani bir me'morlik asarini bunyod etish bilan nishonlashga ahd qildi. Shu maqsadda Hindistonning yuzlarcha mohir g'isht teruvchilari, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur ustalarini Movorounnahrda keltirdi, ular go'zal imoratlar qurdilar. Musulmon Osiyosi ikki yuz yil mobaynida turk qo'shinlariga lashkargoh bo'lganiga, bu qit'ada-Temur saltanatida asarlari bilan bizni hayratga solgan rassomlar, me'morlar va boshqa san'at ahli doimo ijod qilganiga mazkur imorotlar shohiddir. Naqadar vahshiy etib tasvirlangan jahongirning dilida go'zallik va yuksaklikka muhabbat shu qadar kuchli ediki, bunga uning davrida yaratilgan san'at va me'moriy asarlar dalildir"

Mashhur Zangi ota ziyoratgohining bunyod etilish tarixi buyuk sarkarda Amir Temur tomonidan Xo'ja Ahmad Yassaviy yodgorlik majmuasining bunyod etilishi bilan bog'liq holda talqin etiladi.

Mana shu o'rinda Toshkentlik Zangi ota shaxsiga nazar solsak, islom olamida mashhur avliyolardan biri, asli ismi Oyxo'ja bin Tojxo'ja bo'lib, Xo'ja Ahmad Yassaviy hazratlarining ustozlari Arslonbobning evaralaridandir. Zangi otaning avlod shajarasi Arslon bobga (XI asr) yetishi va u zot orqali Muhammad (s.a.v.)ga bog'lanishi haqida ba'zi fikrlar mavjud. Ul zotning hayoti to'g'risida ma'lumotlar unchalik ko'p emas, asosan bizgacha rivoyat va afsonalar ko'rinishida yetib kelgan. Zangi otaning yoshlik yillari Shosh mintaqasining ma'muriy markazi bo'lgan Binket (hozirgi Toshkent)da kechgan. 1220 yilda Binket mo'g'illar tomonidan istilo etilib, vayron etilgach Zangi ota oilasi bilan Hisortepa qal'asiga (Zangi ota tomonidan asos solingan qishloq) ko'chib keladi. Zangi ota 1258 yilga qadar tarmush o'rtog'i Anvar bibi bilan birgalikda shu qishloqda yashab, chorvachilik va diniy targ'ibot bilan shug'ullanib, mahalliy aholiga diniy-ma'naviy rahnamolik qilgan. Bu zot Xo'ja Ahmad Yassaviy ta'limotining izdoshi hamda Sulaymon Boqirg'oniy (Hakim ota)ning shogirdi edi. Zangiota islom dinining taniqli targ'ibotchisi, miskin, xastaliklardan forig' etadigan zot bo'lgan, shuningdek cho'ponlarning piri hisoblangan.

Rivoyat qilishlaricha Xo'ja Ahmad Yassaviyning muborak qabrlariga maqbara qurdirish ishlari Amir Temur tomonidan shaxsan nazorat qilinib, bino g'ishtlari Samarqand xumdonidan olib kelinadi. G'ayritabiiy tarzda qad ko'tarilgan maqbara poydevori kechasi buzib ketiladi. Bu holat bir necha kun takrorlanib,



noiloj Amir Temurga chopar yuboriladi. Sohobqiron farmoyishiga asosan kechasi soqchilar maqbara poydevorini qo'riqlashadi. Tun yarmidan oqqanda sahro tomondan ikki shohli ho'kiz kelib, poydevorni yakson qilib ketadi. Bundan xabar topgan Amir Temur hayratlanib, bu sirni aniqlash lozim degan fikrga keladi. Tongga yaqin sarkarda tushiga musafid kirib, maqbarani avval Zangi otaga qurishi lozimligini, Yassaviy Zangi ota chaqaloqligi davrida "Bu go'dak mendan ham ulug' bo'lsin. Mendan oldin shu go'dak hurmatiga maqbara qurilgay" deb suyunchiga shunday hurmat-e'zoz qilgan deb aytadi .

XIV asrning 90 yillarida Amir Temur tomonidan Zangi ota me'moriy majmuasi bunyod etiladi. 1420 yilda Ulug'bek tomonidan ziyoratgohga peshtoq barpo etilib, bezak ishlari, halimxona va ziyoratchilar uchun hujralar qurilishi yakuniga yetkazilgan .

XIV-XIX asrlarda shakllangan Zangi ota majmuasi uch hududdan tashkil topgan: hovuz va ayvonchalardan iborat keng bog'; Zangiota maqbarasini o'z ichiga olgan trapetsiya shaklidagi hovli va uning tevaragida qurilgan asosiy inshootlar; Zangi ota, ya'ni Oyxo'ja ibn Tojxo'ja va uning umr yo'ldoshi Anvarbibi maqbarasi hamda oila a'zolari hilxonalarini o'z ichiga olgan qo'hna qabriston.

XVI asr Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida Zangiota majmuasida Namozgoh machiti va darvozaxona barpo etiladi. Bundan keyingi davrlarda, jumladan Qo'qon xonligi davrida ziyoratgohda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari to'g'risida ma'lumotlar mavjud emas. 1868 yilda yuz bergan zilzila oqibatida ziyoratgoh obidalari zarar ko'rib, 1870-71 yillarda Namozgoh machitida, 1887-88 yillarda Zangi ota maqbarasida, 1914-15 yillarda Namozgoh machitida, 1832-1915 yillarda madrasada bosqichma-bosqich tiklash ishlari olib borilgan.

Bu ziyoratgoh doimo ziyoratchilar bilan gavjum bo'lgan, ammo sobiq sovet davri mavkurasi ta'sirida 1930 yil ziyoratgoh yopilib, din vakillari qatog'on qilindi. Me'moriy majmua ichida mahalliy ishlab chiqarish sexlari tashkil etilib, madrasa xujralari ishchilarga yashash joyi qilib ajratildi. Ishlab chiqarish sexlari faoliyati natijasida noyob arxitektura yodgorligi asta-sekin yemirila boshlagan. Zaruriy qayta tiklash ishlari umuman olib borilmaganligi sababli Zangi ota maqbarasi va Nomozgoh machiti devoriy yozuvlar tiklab bo'lmaydigan holatga keladi. 1945 yili masjid rasman ochilsada, 1946 yil yopilib, ateistik muzeyga aylantirildi. 1989 yil musulmonlar talabiga ko'ra jome' masjidi va ziyoratgoh yana qayta ochildi.



1-rasm. Zangi-ota majmuasi (1925 y.)



2-rasm. Zangi-ota majmuasi (2018 g.)

Istiqlol yillarida Zangi ota majmuasi hududi tubdan obodonlashtirildi, ayrim inshootlar ta'mirlandi. 2014- 2015 yillar mobaynida majmuada ulkan qurilish – ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Umumiy sahni 8 gektarga kengaytirilib, mislsiz obod go'shalaridan biriga aylantirildi. Hozirgi vaqtda ushbu majmua Toshkent viloyatidagina emas, balki Markaziy Osiyodagi eng yirik ziyoratgoh va muqaddas qadamjoldan biriga aylangan. Zangi ota majmuasining me'moriy tuzilishi betakror. Amir Temur davrida va undan keyingi olti asr davomida bunyod etilgan tarixiy-me'moriy yodgorliklar Toshkent vohasining o'ziga xos me'moriy qurilish maktabining yorqin nomoyondasidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. B.Ervaaliyev, I.Ostonaqulov, N.Abdulohatov. O'zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari: Toshkent viloyati va Toshkent shahri. Toshkent, "Turon Zamin Ziyo". 2015 yil. 291-bet.
2. Toshkent. Ensiklopediya. Toshkent. 1992 yil. 157-bet.
3. H.Vamberi "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" Toshkent 1990 yil 52-bet.
4. A. Samad. "Zangi ota marqadi". Toshkent, "2004 yil, 22-bet.
5. B.Ervaaliyev, I.Ostonaqulov, N.Abdulohatov. O'zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari: Toshkent viloyati va Toshkent shahri. Toshkent, "Turon Zamin Ziyo". 2015 yil. 299-bet.
6. A.Ziyayev. Zangiata. Toshkent, "San'at"-2015 god. St 22.



53. **D.B. Umirov.** Jangovar ruh va ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda ajdodlar o'rni ..... 204
54. **M. Xaliqulov.** The development of trade routes during Amir Temur and the timurids period ..... 208
55. **Sh. Xotamov.** "Temur tuzuklari" yoshlarni vatanparvarlik ruhda tarbiyalash manbasidir ..... 211
56. **X.Yu. Boboyev.** Ajdodlarimiz harbiy faoliyatida milliy va jangovar ruhning ifodalanishi: Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Boburlarning fazilatlari to'g'risida ..... 215
57. **F.B. Sherova.** Amir Temur - dono siyosatchi va g'olibkor jahongir ..... 223
58. **Г.Ш. Санаев.** Амир Тимур-великий полководец и основатель централизованного государства ..... 228
59. **Z.K. Sobirov.** Temuriylar davrida ma'naviy hayot ..... 232
60. **O.B. Masharipov, D.Ya. Matmurov.** The fights about of Jalaliddin Manguberdi ..... 234
61. **V.E. Achilov.** Amir Temurning jangovar san'atga qo'shgan hissasi ..... 238
62. **M.D. Norboyeva.** Amir Temur ma'naviy me'rosi – milliy qadriyatlarimiz majmuyi ..... 241
63. **Z.K. Sobirov.** Amir Temurning bunyodkorlik faoliyati ..... 244
64. **R.B. Xusanov.** Amir Temur davlatining ichki va tashqi siyosati ..... 247
65. **I.A. Raximbekov.** Amir Temurning mamlakat rivojlanishi yo'lida olib borgan faoliyati ..... 249
66. **J.D. Matquliyev, Z.O. Xudayorova.** Temuriy sarkarda, shox va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur harbiy merosining o'rganilishi ..... 253
67. **SH.B. Jumayeva.** Sohobqiron Amir Temur bunyod etgan ziyoratgoh: tarixi va buguni ..... 256
68. **B.G. Mavlyanov.** Amir Temur davlatida boshqaruv davrida amirlar, vazirlar, sipoh hamda raiyatni rag'batlantirish usullari ..... 260
69. **S.X. Gaipov., A.A. Jo'rayev.** Buyuk saltanat va takomillashgan armiya asoschisi ..... 263
70. **L.N. Ochilodiyev.** Amir Temur va Temuriylar davri manbashunosligi va tarixnavisligi ..... 267
71. **M.D. Mehritillayev.** Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amir Temurning o'rni ..... 271
72. **M. Eshquvvatova.** Amir Temur harbiy yurishlari ..... 276
73. **K.A. Xaydarov.** Pedagogik hamkorlik asosida bo'lajak ofitserlarda fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning mazmuni va mohiyati ..... 280
74. **A.G. Sayitkulov.** Qurollardan yer osti jangida samarali foydalanish ..... 284
75. **S.A. Habiyev.** Harbiy xizmatchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasining dolzarb masalalari ..... 289
76. **B.K. Daminov.** Jismoniy sifatlarni tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslari va harakat malakalarini shakllantirish ..... 292
77. **B.A. Yusupov.** Tank bo'linmalarini jang maydonida razvedka ma'lumotlari bilan taminlashda uchuvchisiz uchish apparatlarining qo'llanishi ..... 296

**“SOHIBQIRON AMIR TEMURNING JAHON VA MILLIY  
HARBIY SAN’AT RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI”**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-USLUBIY KONFERENSIYA**

**T O‘ P L A M I**

**2024-yil 3-aprel**

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ**

**МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ  
“ВКЛАД ВЕЛИКОГО ПОЛКОВОДЦА АМИРА ТИМУРА В РАЗВИТИЕ  
МИРОВОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЕННОГО ИСККУСТВА”**

**“THE CONTRIBUTION OF MASTER AMIR TEMUR TO THE DEVELOPMENT OF  
WORLD AND NATIONAL MILITARY ART”  
COLLECTION OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND METHODOICAL CONFERENCE  
ON THE SUBJECT**

**Texnik muharrir:** Chirchiq OTQMBY Gumanitar fanlar kafedrası gumanitar fanlar sikli boshlig‘i dotsent, podpolkovnik **A.T. Dusboyev**.

**To‘plam muharriri, maqolalarni yig‘uvchi:** Chirchiq OTQMBY Gumanitar fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi, dotsent **B.A. Tilavov**.

To‘plam Chirchiq OTQMBY boshlig‘ining “14”.03.2024 yildagi 172-sonli buyrug‘iga muvofiq va Bilim yurti boshlig‘ining 2024-yil “14” mart kuni tasdiqlagan dasturi asosida tashkil etildi.

